



HISOBVARAQ OCHISH VA MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH
BO'YICHA
OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

“Smart bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda Bank deb ataluvchi) nomidan Bank Ustavi asosida faoliyat yurituvchi Bank Boshqaruv raisi To‘rayev Azamat Shuhratovich bir tarafdin va «mijoz nomi» (keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb ataluvchi) ikkinchi tarafdin, birgalikda “Tomonlar” deb nomlanib, ushbu ommaviy oferta shartnomani (keyingi o‘rinlarda shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Bank Mijozning talabiga binoan Mijozga talab qilib olinguncha masofadan boshqariladigan depozit hisobvaraqq (keyingi o‘rinlarda hisobvaraqq deb yuritiladi) ochadi hamda ushbu hisobvaraqq bo‘yicha amaliyotlarni bajaradi.
- 1.2. Mazkur shartnoma mijozning onlayn so‘roviga binoan hisobvaraqqni masofadan ochish (Bank uni ochish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni olgan holda) va unga kelib tushgan pul mablag‘larini qabul qilish va hisobini yuritishni tartibga soladi.
- 1.3. Mazkur shartnoma Mijoz Bankning mobil ilovasi (yoki veb-sayti)da ro‘yxatdan o‘tgan vaqtda imzolanadi (o‘z roziligini bildiruvchi belgi qo‘ish yo‘li orqali) va Mijozning Bank tomonidan mobil ilovasi (yoki veb-sayti) orqali ko‘rsatiladigan xizmatlari bo‘yicha barcha shartlariga o‘z roziligini bildiradi.

2. SHARTLAR, PUL MABLAG‘LARNI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH

- 2.1. Shartnomaga muvofiq Mijoz uning nomiga ochilgan hisobvaraqqa o‘z mablag‘larini joylashtiradi va Bank esa Mijozdan mobil ilovasi (yoki veb-sayti)dan foydalangan holda hisobvaraqqa mablag‘larni qabul qiladi va ushbu mablag‘larni mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qaytarish majburiyatini oladi.
- 2.2. Shartnomaning shartlari:
 - 2.2.1. Hisobvaraqqa xizmat ko‘rsatish muddati cheklanmagan;
 - 2.2.2. Hisobvaraqq bo‘yicha amaliyotlar faqat naqdsiz ko‘rinishda, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tarzda amalga oshiriladi.
 - 2.2.3. Hisobvaraqqa qo‘shimcha badallar kiritish ko‘zda tutilgan. Uning miqdori bo‘yicha cheklovlar O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik talablariga muvofiq joriy etiladi;
 - 2.2.4. Hisobvaraqqdan mablag‘larni to‘liq yoki qisman boshqa hisobvaraqqa o‘tkazish Mijozning hoxishiga ko‘ra istalgan vaqtda amalga oshiriladi, quyidagi holatlar bundan mustasno:
 - agar amaliyotlar o‘tkazish jarayonida mobil ilovasi (yoki veb-sayti)da texnik sabablar bo‘yicha vaqtincha uzilishlar bo‘lsa yoki ishlamayotgan bo‘lsa;
 - amaliyot kunining yopilish jarayonida.
 - 2.2.5. Hisobvaraqqdagi qoldiq mablag‘lar yuzasidan foiz xisoblamaydi.
- 2.3. Mijoz tomonidan ushbu shartnomani Bankning mobil ilovasi (yoki veb-sayti) orqali qabul qilishi Mijozning ushbu Bank mahsuloti bo‘yicha taklif etilayotgan tarif va shartlarga roziligini bildiradi.
- 2.4. Hisobvaraqqa pul mablag‘larini kirim qilish ular kelib tushgan vaqtda onlayn amalga oshiriladi. Bankning mobil ilovasi (yoki veb-sayti)da texnik sabablar bo‘yicha vaqtincha uzilishlar yoki ishlamaslik holatlarida pul mablag‘lari kelib tushgan kunning o‘zida kirim qilinadi.
- 2.5. Mijoz o‘z hisobvarag‘idan pul mablag‘larini to‘liq yoki qisman yechib olinishi, keyingi ish kunidan kechikmagan holda, Mijozning Bankda ochilgan boshqa hisobvarag‘iga yoki Bank plastik kartasi (yoki virtual plastik kartasi)ga faqat naqd pulsiz shaklda pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.
- 2.6. Mijoz o‘z hisobvarag‘ini undagi qoldiq mavjud bo‘lmagan holatda istalgan vaqtda yopishi mumkin.

3. HISOB-KITOBLAR VA TO‘LOVLAR

- 3.1. Hisobvaraqq ochish va unga xizmat ko‘rsatish, ular bo‘yicha amaliyotlarni bajarish yuzasidan Bankning xizmat haqi Bank tarifiga muvofiq hisoblanadi va undiriladi.
- 3.2. Bank tariflariga kiritilgan o‘zgarishlar to‘g‘risida ma‘lumotlar Bank tomonidan Mijozni 10 (o‘n) kun ichida Bankning mobil ilovasi (yoki veb-sayti) orqali xabardor qiladi hamda Bank tariflariga kiritilgan o‘zgarishlar amalda foydalaniladi.
- 3.3. Mijoz Bank tariflariga kiritilgan o‘zgarishlarga rozi bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasining qonunchilikka binoan Bank bilan shartnomani bekor qilishga haqli.

3.4. Mijozning hisobvarag'idagi mablag'lari va ularning qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq kafolatlanadi.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mijoz huquqlari:

4.1.1. Bankning mobil ilovasi (yoki veb-sayti) orqali Bankdan o'z hisobvarag'idagi mablag'larini to'liq yoki qisman talab qilish;

4.1.2. Ushbu shartnomada belgilangan shartlar va tariflar bo'yicha bir nechta hisobvaraqlarni yuritish;

4.1.3. O'zbekiston Respublikasining qonuchiligiga muvofiq boshqa huquqlar.

4.2. Mijoz majburiyatlari:

4.2.1. Ushbu shartnoma shartlari bilan mustaqil ravishda tanishib chiqish;

4.2.2. Hisobvaraqlar bo'yicha amaliyotlarni O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, Markaziy bankning va boshqa vakolatli organlarning qarorlariga muvofiq ravishda amalga oshirish;

4.2.3. Hisobvaraqa ochish va amaliyotlar bajarish uchun hujjatlar va ma'lumotlarni to'liq taqdim etish (Mijoz ushbu hujjatlar va ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgar);

4.2.4. Hisobvaraqa noto'g'ri kirim qilingan va/yoki hisobvaraqdan noto'g'ri chiqim qilingan mablag'lar aniqlangan taqdirda, darhol bu haqda Bankni Bankning mobil ilovasi (yoki veb-sayti) orqali xabardor qilish;

4.2.5. Mijoz ushbu shartnoma shartlarini bajarilishiga ta'sir qiladigan o'z ma'lumotlari (manzili, telefoni, familiyasi, ismi, otasining ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjati yoki boshqa hujjatlari) o'zgarganida bu to'g'risida Bankni shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali 3 (uch) kun ichida xabardor qilish;

4.2.6. O'zbekiston Respublikasining qonuchiligiga muvofiq boshqa majburiyatlar.

4.3. Bank huquqlari:

4.3.1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli davlat organlaridan ijro hujjatlari olingan taqdirda belgilangan tartibda tegishli choralar ko'rish (ijro hujjati va boshqa ijrosi majburiy hisoblangan hujjatga muvofiq mablag'larni o'tkazib berish, hisobvaraqa bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib qo'yish va boshqalar);

4.3.2. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun Bank Mijozdan hisobvaraqa amalga oshirilgan amaliyotlarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;

4.3.3. Hisobvaraqdagi amaliyotlarni O'zbekiston Respublikasining qonunlarida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'xtatib qo'yish yoki faollashtirishni rad etish.

4.3.4. O'zbekiston Respublikasining qonuchiligiga muvofiq boshqa huquqlar.

4.4. Bank majburiyatlari:

4.4.1. Mijozning xohishiga ko'ra Mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini qaytarish (naqd pulsiz shaklda);

4.4.2. Hisobvaraqlardagi mablag'larning saqlanishini va butligini ta'minlash;

4.4.3. Mijozning hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu shartnoma va arizada ko'rsatilgan Mijozning telefon raqamiga "SMS" xabar tarzida yoki elektron pochta manziliga xabarlar tarzida yuborish;

4.4.4. O'zbekiston Respublikasining qonuchiligiga muvofiq boshqa majburiyatlar.

5. BANK SIRI

5.1. Bank O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuniga muvofiq Mijoz va uning amaliyotlari to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.

5.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar Mijoz yoki uning vakili tomonidan uning so'roviga binoan Bank tomonidan taqdim etilishi mumkin.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi hamda ushbu shartnomaning shartlarini buzgan tomon O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

7. MAXSUS SHARTLAR

- 7.1. Bank tomonidan Mijozning shaxsiy ma'lumotlari qo'yidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:
- 7.1.1. Mijoz manfaat oluvchi yoki manfaatdor tomon bo'lgan shartnomalarni tuzishda va bajarishda;
 - 7.1.2. Mijozning huquq va majburiyatlarini lozim darajada bajarilishini ta'minlashda;
 - 7.1.3. Ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan sohta bitimlarning oldini olish maqsadida;
 - 7.1.4. Shartnomalar bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni Mijozga yetkazish, shuningdek uchinchi tomonning qo'shma dasturlarida (sodiqlik dasturlarida) ishtirok etadigan uchinchi shahslar to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor qilishda;
 - 7.1.5. Sug'urta, pochta tashkilotlari, aloqa tashkilotlariga o'tkazmalarda;
 - 7.1.6. Bank tomonidan statistik va/yoki marketing tadqiqotlarini o'tkazish va/yoki Mijozga Bank va sheriklarining yangi mahsulotlari yoki xizmatlari to'g'risida ma'lumot berishda;
 - 7.1.7. Boshqa davlat tashkilotlariga, shuningdek jismoniy shaxslarga muddati o'tgan qarzlarni undirishda.
- 7.2. Mijoz o'z hisobvarag'idagi pul mablag'larini mustaqil ravishda boshqaradi, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
- 7.3. Bank O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari Mijozning mablag'laridan foydalanish shaklini belgilash va nazorat qilish, shuningdek Mijozning pul mablag'larini ishlatish va tasarruf etish huquqlarini cheklash huquqiga ega emas.
- 7.4. Bank va Mijozning o'rtasidagi ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq tartibga solinadi.
- 7.5. Mijozning hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni bajarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankingning normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi va Tomonlar uchun majburiy xisoblanadi.

8. SHARTNOMANI YOPISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 8.1. Hisobvaraqa O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hamda Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan barcha qarzdorliklar so'ndirilgan holatda Bankning mobil ilovasi (yoki veb-sayti) orqali yopilishi va bekor qilinishi mumkin.
- 8.2. Mijozning hisobvarag'ini yopilishiga asos bo'lib Bankning mobil ilovasi (yoki veb-sayti) orqali Mijozning istagi yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asos bo'ladi.
- 8.3. Shartnoma qabul qilingan (imzolangan) paytdan boshlab kuchga kiradi hamda nomuayyan muddatga tuziladi va Mijozning xohishiga ko'ra yoki Bankning so'roviga binoan sud orqali (Mijoz tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarmagan taqdirda) bekor qilingunga qadar amal qiladi.
- 8.4. Mijoz Bank tariflariga kiritilgan o'zgarishlar bo'yicha rozi bo'lmaganda, Mijozning Bankka Bankning mobil ilovasi (yoki veb-sayti) orqali kelib tushgan norozilik va/yoki rad etishi hisobraqamni yopish bo'yicha arizaga tenglashtiriladi va bu Bankka hisobraqamini yopish huquqini beradi.
- 8.5. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar belgilangan tartibda amalga oshiriladi.